

QURDOSH QAHRAMONOV HANGOMALARI

Ergash Ochilov,

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi,*

Men ilm olamiga kirib kelgan o‘tgan asrning to‘qsoninchi yillari boshidan boshlab ustozim Sul-tonmurod Olim bahona u kishining Rahmatulla Barakayev, Zuhrid-din Isomiddinov kabi do‘stlari bilan ham yaqinlashib, hamisha ularning davrasida yurganman. Jumladan, Qurdosh Qahramonov bilan tanishganimga ham o‘ttiz yillar bo‘lib qoldi.

Qurdosh akani birinchi marta 1993-yilning sentabr oyida To‘lqin Rahimovning nomzodlik dissertatsiyasidan keyin yozilgan ziyofat dasturxonida ko‘rganman. U kishi dasturxon atrofida Sul-tonmurod aka bilan qandaydir adabiy mavzu ustida rosa bahslashgan. O‘shanda bu olimning bahsga nihoyatda o‘chligi haqidagi gaplarni eshitganman.

U kishi Nizomiy nomidagi pedagogika institutiga ishga o‘tib ketgach, ancha uzoqlashib qoldik. Lekin har turli tadbirlarda ko‘rishib yurardik.

Do‘stlari davrasi yurganimdan o‘g‘lini uylantirganida meni ham to‘yga aytgan va shirakayf bo‘lib olib, yoshlikning havosi bilan so‘z olib, rosa she‘rxonlik ham qilganman.

Oradan yillar o‘tib Qurdosh aka shuni ham esladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutiga qaytib, Adabiyot nazariyasi va adabiy aloqalar bo‘limiga mudir bo‘lganida birga ishlaymiz deb, qo‘yarda-qo‘ymay bo‘limiga ishga taklif qildi.

Mana shu ko‘p yillik do‘stu qadrdonligimiz va hamkorligimiz mahsuli sifatida u kishi bilan bog‘liq bir qator hangomalar yon daftarimga tushib qolgan ekan, shulardan ayrimlarini ustoz olimning qutlug‘ 70 yoshi bahona hamkasblar hukmiga havola qilishni lozim topdim.

Ilm ahlining ahvoli

Qurdosh akaning hovlisidagi qurilishlar haligacha nihoyasiga yetmagan.

– O‘ziyam qirq yildan buyon qurilish qilaman – hali hovli etagidan o‘zimga bir ijodxon qurish niyatim bor deydi, – deydi yetmishni urayotgan bechora olim.

Oylikka yashagan ahli ilmning ahvoli shu-da. Orttirganida qiladi. Orada qizlarini uzatgan, o‘g‘illarini uylantirgan.

Infarktlar bo‘lgan...

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Boshqa xastaliklar...

Jannat

- Dala-hovlingizni jannatday joy qilishingiz mumkin edi, siz esa keyinga solib yuribsiz, – dedi Qurdosh Qahramonov qo‘shnisiga.
- Jannatda yashashga hali erta deb o‘ylayaptilar-da, – dedim men kulib.

Ish – eng yaxshi tabib

- Salkam yigirma yil burun og‘ir infarktni boshimdan o‘tkazganman, – deydi Qurdosh Qahramonov. – O‘shanda nogironlik nafaqasiga chiqarishmoqchi bo‘lishdi. Men bilan birga davolanganlarning ko‘pchiligi nogironlik nafaqasiga chiqib ketdi ham. Lekin men rozi bo‘lmadim. O‘zimni ish bilan ovutib yuribman. Xudoga shukr shikoyatim yo‘q.

Mashinani yuvish

Qurdosh Qahramonov ziyofatga chorlab qoldi:

- O‘n kilo baliq oldim. Baliq qovuramiz. Yana osh damlaymiz. Otamiz.
- Ha, kimning tug‘ilgan kuni? – desam:
- Mashinaning! – dedi. – Yangi mashina oldim.

Beminnat xizmat

Qurdosh aka Mamatqul Jo‘rayev bilan kaminaning go‘yoki shaxsiy haydovchisi edi. Qayerda osh yoki biror tadbir bo‘lsa, Mamatqul aka avval bir qadrdoni – Qurdosh aka bilan gapni bir joyga qo‘yib, keyin ikkinchi qadrdoni – kaminaga sim qoqar edi:

- Falon paytda ko‘cha boshiga chiqib turing – oshga borib kelamiz!

Beminnat “xizmatkor” Qurdosh aka bundan sira og‘rinmagan va malol olmagan. Qaytanga meni ham qo‘yarda-qo‘ymay uyimga tashlab qo‘yardi.

Odamning qadri

- Naim Karimning oshiga birga boramiz, – deb o‘zi taklif qilib, o‘zi unutib tashlab ketgan Qurdosh Qahramonovga hazillashdim:
- Mamatqul Jo‘rayevning qadri o‘tdi-da: u kishi avval mashina topib, keyin menga qo‘ng‘iroq qilardi – falon soatda falon joyga kel deb...

To‘zg‘igan uchliklar

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Rahmatullo Barakayev, Mamatqul Jo‘rayev va kamina ilmiy anjumanlar va xizmat safarlariga ko‘pincha birga borar edik. Ba‘zilar shunga bo‘la hasaddan kuyib, bizga “la’nati uchlik” deb nom qo‘yishgan edi.

– “Svolich troyka”dan ham ikkalamiz qoldik, – dedi shunga ishora qilib Rahmatullo aka Mamatqul akani tuproqqa qo‘yib kelayotganimizda.

– Qurdosh aka, Mamatqul aka va kamina ham o‘ziga xos troyka edik – to‘ylar, oshlar, ziyofatlar, ma‘rakalarga hamisha birga borardik, – dedim. – Bu tomondan ham uchlik to‘zg‘ib ketdi.

Go‘shtsiz osh

Qurdosh aka niyat qilib, devzira guruch olib, yoniga go‘sh t va zig‘ir yog‘i qo‘shib, sabzisini to‘g‘rab, do‘stlariga bir osh qilib berishni niyat qilgan ekan.

– Oshni ertaga choyxonada qila qolaylik. Men bir andijonliklarning yaxshi choyxonasini bilaman.

Shunday deb, Zuhridin aka guruch, zig‘ir yog‘i va to‘g‘ralgan sabzini choyxonaga tashlab qo‘yish uchun oldi-yu, go‘sh tni qo‘yarda-qo‘ymay qaytarib berdi.

– Go‘shtsiz qanaqa osh bo‘ladi? – deb hayron bo‘lgan yangaga hazillashdim:

– Bular talabalik davrini eslab, bir go‘shtsiz osh yeyishmoqchi-da.

Koronavirus

Qurdosh Qahramonov aytadi:

– Bir hafta-o‘n kun yo‘talib, isitmalab yurdim. Tekshirtirgani borsam, “Siz koronavirus bo‘lib o‘tib ketibsiz. Endi sizda koronavirusga qarshi immunitet hosil bo‘lgan”, – deyishdi.

– Unda kuzda kutilayotgan ikkinchi to‘lqinidan siz qo‘rqmasangiz ham bo‘lar ekan-da, – dedim kulib.

Bekorchilar

– Bu bekorchilarni ishga ko‘mib tashlash kerak! – degan Qurdosh akaga piching qildim:

– Bular tili bilan ishlaydi, qo‘li bilan emas.

So‘zi boshqa, o‘zi boshqa

O‘zini tasavvufshunos deb hisoblaydigan bir olim Nizomiy nomidagi pedagogika universitetidan O‘zbek tili va adabiyoti universitetiga o‘tgan talabalarga darsga kirib:

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

– Sizlar tasavvufni mutlaqo bilmaysizlar! – deb osmondan kelib haqoratomuz gaplar aytgan ekan, bir qiz o‘rnidan turib:

– Siz tasavvufni yaxshi bilsangiz, shu kibru havongizu shu ta’na-haqoratlaringiz tasavvufning qaysi yo‘li, qaysi qoidasiga to‘g‘ri keladi? – degan ekan nima javob qilishini bilmay, mulzam bo‘lib qolibdi.

– Endi u qaysi yuz bilan bu guruhga darsga kiradi? – dedi Qurdoş Qahramonov.

– E, unda yuz yo‘q – hech narsa bo‘lmaganday kiraveradi, – dedim men. – Faqat endi o‘sha qizga o‘chakishib, ko‘z ochirmaydi.

Yangi xodim

– Qani, bo‘limning kelgusi rejalari haqida siz ham o‘z fikringizni ayting, – deb menga yuzlangan Qurdoş Qahramonovga hazillashdim:

– Avval bo‘limning ustunlari o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashsinlar. Men boshqa bo‘limdan ko‘chirib o‘tkazilgan bir ko‘chat bo‘lsam – hali bu yerda unib-o‘sib ketamanmi yoki qurib ketamanmi bilmasam...

Sochlar

– Sizning sochingiz oqargan bo‘lsa ham, to‘kilmagan-a? – deb Qurdoş Qahramonov Abdurahob Madvaliyevga hayron bo‘lib so‘z qotgan edi, men darhol gapga qo‘shildim:

– Bu kishi bir qo‘li bilan boshini ushlab turib, ikkinchi qo‘li bilan yozadi-da.

Parishonxotirlik

Qurdoş aka bozor kuniga oshga chaqirsa, Zuhridin akaning parishonxotirligi bilan shanba kuni borib qolibmiz. Mehmon qildi-yu, lekin osh baribir ertasiga qoldi. Shunga bo‘la xayrlashayotganda hazillashdim:

– Ertaga uchrashadigan bo‘lsak, xayrlashib nima qildik?

Maslahat oshi

Zuhridin akaning parishonxotirligi sabab Qurdoş aka chorlagan oshga bir kun oldin borib qolibmiz.

– Bo‘lmasa bu maslahat oshi – ertaga yana kelaveramiz, – dedim shunga bo‘la hazillashib.

Maslahat oshida ham rosa uch soat guring qilib o‘tirdik.

– Bugun gapirib olinglar – ertaga Sul-tonmurod aka hech kimga so‘z bermaydi, – dedim shunga bo‘la hazillashib.

Qarzdor

Qurdoosh akanikidan qaytayotganida yo‘limiz bir bo‘lgani uchun Zuhridin aka bir qizni mashinasiga oldi va manzilga yetganda qiz:

- Xo‘sh, qancha beray? – degan edi:
- Bir kuni kelib siz ham mashina minganingizda yo‘lda meni ko‘rsangiz mashinangizga mingizasiz, – deb yo‘lkira olmadi.

Dardisar

Bir parodiyannis bor. Men uni jiddiy odam deb o‘ylamayman. Savodi ham, saviyasi ham haminqadar. Parodiya yozib ham biror darajaga erishgan emas. Sultonmurod Olim, Zuhridin Isomiddinov kabilar bilan topishib olib, har kuni yangi yozgan parodiyasini o‘qib berar ekan. Qurdoosh akanikida o‘tirganimizda ham Zuhridin akaga qo‘ng‘iroq qilib, yangisini baham ko‘rdi.

- Parodiya bu – adabiyotning sanitari, – deb u kishi kiftini kelishtirib maqtagan edi, to mehmondorchilik tugaguncha yana ikki marta qo‘ng‘iroq qilib, parodiyaxonlik qildi.

Nasib qilmagan osh

Qurdoosh akaning devzira oshi ham bir hangoma bo‘ldi. U yakshanba mo‘ljallagan oshga Zuhridin aka hammani bir kun oldinga aytib qo‘yib, natijada ikki kun mehmon bo‘ldik. Holbuki, hammani ikki kun sarson qilgan oshni yeyish adashganning o‘ziga nasib qilmadi – yana bir tadbiri bor ekan, ikkinchi kuni ham rosa cho‘zilgan oshni kutolmay o‘sha yoqqa ketishga majbur bo‘ldi.

Bir ish mashmashasi

Bitta osh deb, shanba-yakshanba – ikki kun Qurdoosh akanikida mehmon bo‘ldik.

- Agar dushanba kuni ham biror o‘tirish tashkil qilsangiz, kechni mo‘ljallang, chunki kunduzi ishdamiz, – dedim shunga bo‘la hazillashib.

Dars

– Ko‘p o‘rindosh sifatida ishlaydigan olimlar talabalarga sakson daqiqa dars o‘tishga chidamaydilar – aytadigan gaplarini yarim soatda aytib tugatib, keyin nima qilishlarini bilmay qoladilar, – deydi Qurdoosh Qahramonov.

- Ha, sakson daqiqa talabalarning diqqatini tortib o‘tirishning o‘zi bo‘lmaydi, – dedim buni eshitib.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Adashlar

Sultonmurod akaning tug‘ilgan kuniga ketayapmiz. Mashinaning orqasida o‘zaro suhbatga berilib kelayotgan Qurdosh aka va Xurram akalarning tilidan har zamonda Ergash degan nom chiqayotganini eshitib, oxiri o‘girilib qaragan edim:

- Biz siz emas, boshqa Ergash haqida gapiryapsiz, – deyishdi.
- Iye, mendan boshqa Ergash ham bor ekanmi? – dedim shunda hazillashib.

Qadr

– Siz bizning bo‘linga o‘tganingizni eshitib xursand bo‘luvдик – yana bo‘limingizga qaytibsizmi? – degan Qurdosh Qahramonovga:

- Mayda-chuyda gaplarni ko‘paytiribsizlar. Shunga direktor o‘z bo‘limingda qola qol dedi, – deb javob qaytardim.
- Ha, yo‘q, sizga hech kim qarshi bo‘lmaydi.
- Unda so‘rab olinglar – qadrlı bo‘laman. Osmondan tushganday o‘tkazib qo‘yganlari men uchun haqoratday edi.

Zo‘raki muttaham

Qaysi shoir-yozuvchi haqida gap ketmasin, Shuhrat Umiraliyev darhol:

- Yangicha qarash bilan – boshqacha yozish kerak, – deb hammaning og‘ziga uradi. Bu bilan faqat men yozishim kerak demoqchi bo‘ladi. Holbuki, o‘zining yozgani hech narsaga yaramaydi.
- Men Hamza va Furqat haqidagi maqolalarini o‘qib, hafsalam pir bo‘ldi – hech narsa yo‘q-ku! – deydi Qurdosh Qahramonov hayron bo‘lib. – Men ilgari unga bilmay yuqori baho berib yurgan ekanman.
- Ha, bu olifto faqat gapni aylantiradi. Chiroyli gaplar bilan o‘quvchining qulog‘iga lag‘mon osadi, – dedim kulib.

Subyektiv olim

- Matyoqub Qo‘shjonov avvalo matnning mag‘zini chaqing der edi, – degan Qurdosh Qahramonovning gapini og‘zidan oldim:
- Siz aytayotgan manovi olim esa matnni tushunmaydi-da – butun muammo shunda! Muallifning fikri bir yoqda qolib, u o‘zicha sub’ektiv talqin qiladi.

Iste‘dodning zavoli

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

– Bu kimsaning o‘zi yaxshi shoir bo‘lmasa-da, Falonchiga o‘xshab ko‘p iste’dodlarning boshini yeb, adabiyot rivojida o‘ta salbiy rol o‘ynagan, – dedi Qurdosh Qahramonov.

– Lekin adabiyotda biror iz qoldirmay ketdi. Chunki o‘lganidan buyon biror joyda nomi tilga olinmaydi, – dedim men.

Balo

– Bu baloni nima qilsam ekan-a? – deb bir yaramas xodimiga ishora qilgan Qurdosh Qahramonovga hazillashdim:

– Bu baloni hech narsa qilolmaysiz!

Shogird talashish

– Tolib Najmiddinovning ilmiy rahbarligini Qurdosh Qahramonovning o‘ziga qoldirdim, – degan Suvon Meliga hazillashdim:

– Iye, siz juda bag‘rikeng ekansiz-ku! Falonchilar ustoz-shogird bo‘la turib, bitta shogirdning ustida jiqqamusht bo‘lishgan – oqibat bechora shogird ilmni tashlab ketgan.

Dissertatsiya

– “Navoiy va Ogahiy” nomli monografiya chiqardim. Ko‘pchilik shuni doktorlik dissertatsiyasiga aylantir deyapti, – desam, Qurdosh Qahramonov:

– “An’ana va badiiy mahorat” deb dissertatsiya qilsangiz bo‘lar ekan, – dedi.

Dalilning kuchi

– Nega dissertatsiyangizni ustozingizga ko‘rsatmay bo‘lim muhokamasiga qo‘ydingiz? – deb Tolib Najmiddinovni siquvga olsam:

– Men ko‘rib berganman, – deb ilmiy rahbari Qurdosh Qahramonov oraga gap suqqan edi:

– Agar o‘qiganingizda mingga yaqin imlo xatolariyu boshi-oxiri yo‘q takrorlar bo‘lmas edi! – deb og‘ziga urgan edim, miq etolmay qoldi.

Odamgarchilik

Qon bosimi yuqoriligi tufayli Qurdosh Qahramonovning o‘zi osh yeyolmasa-da, odamgarchilik yuzasidan oshlarga boradi.

Dilkusho gurunglar

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Qurdoosh Qahramonov oshga taklif qilgan edi. Ishim ko‘p deb, uzr aytsam, Zuhridin Isomiddinovga tayinlab yuboribdi.

– Uyda zerikib o‘tirmang – oshga olib borib kelay, – dedi.

– E, aka, zerikishga vaqt bormi – shanba-yakshanbada ikkita maqola qilishim kerak, – dedim.

Lekin tayyor mashina bo‘lgani uchun rozilik ham berib yubordim:

– O‘zi-ku ishim ko‘p, lekin sizday ulug‘larning suhbatlari men uchun bir ajoyib kitob mutolaasi o‘rnini bosadi. Bir kunda bir kitob o‘qisam yomonmi?

Bo‘pti, borganim bo‘lsin!

O‘qishdan tashqari yana bu suhbatlar menga yozish uchun ham ancha-muncha material beradi va ularning tilidan chiqqan tesha tegmagan gaplarni, qiziqarli hangomalarni, ilmiy-adabiy fikrlarni yondaftarimga bitib ham qo‘yaman-da.